

## INGLIZ VA O'ZBEK FOLKLORIDA SAFAR MOTIVI IFODASI

**Xalilova Ruxsora Qurolbek qizi**

*Navbahor tumani 3-umumta'lim maktabining ingliz tili  
fan o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** *motiv, safar motivi, folklor, adabiyot, doston, ertak, afsona, marosim qo'shiqlari, lirik qo'shiqlar.*

Ushbu tezis o'zida ingliz va o'zbek folklor asarlarida uchraydigan safar motivining qanday ifodalanganligini tadqiq qilishdan asosiy g'oyalar, maqsadi, yangiligi hamda olingan qisqacha xulosalarni aks ettiradi.

Tadqiqot mavzusini yoritishda chog'ishtirma-qiyosiy, tavsifiy, kontekstual tahlil usulidan foydalanildi. Hozirgacha bu masalalar yaxlit holda har ikkala til misolida qiyoslab o'rganilmagan, tadqiqotda ingliz va o'zbek folklorida safar motivi batafsil o'rganilib o'xshash va farqli tomonlari qiyosiy o'rganildi. Har qanday til o'rganuvchi yoki oliy o'quv yurtining ingliz va o'zbek filologiyasi bo'limida ta'lim olayotgan talabalarning qiyosiy tipologiya va ingliz adabiyotshunosligi fanlaridan o'tkaziladigan seminar mashg'ulotlarida mazkur ishdan foydalanishlari mumkin. Bundan tashqari, folklor asarlari tahlili mavzusida magistrlik dissertatsiyalari yoki ilmiy maqolalar ustida ishlayotgan izlanuvchilarga mazkur ishda aks etgan ma'lumotlar qo'l keladi.

Tadqiqot ishining tadbiiq etish darajasi muammoning aniq qo'yilganligi, olimlarning nazariy fikrlariga tayanilganligi, tadqiqotda chog'ishtirma tilshunoslik yutuqlaridan kelib chiqqan holda chiqarilgan xulosalarning kompozitsiya, chog'ishtirma-qiyosiy, kontekstual tahlil usullarda dalillanganligi bilan belgilanadi.

Afsonalar tahlili jarayonida safar motivi yetaklab keluvchi mazmun jihatidan ingliz afsonalari « Qirol Artur » va « Robin Gud » da dushmanga qarshi kurash hamda yangi hududlarni bosib, mamlakat hududini kengaytirish ma'nolari ifodalanishi, o'zbek afsonalarida esa savdo qilish, ota-onasini tashlab kelish, safar motivi metafora bo'lib kelgan holda esa qushlarning issiq o'lkalarga migratsiyasi mazmuni ifodalanib kelinishi o'rganildi.

Tadqiqotda tahlil qilingan barcha folklor janrlarida safar motivining tabiat tasvirini ifodalab kelishi jihatidan ingliz folklorida barcha o'rinlarda suv va dengiz hamda o'rmonzorlar ifodalangan bo'lsa, o'zbek folklorida cho'l va quruqliklar aks ettirilishiga xulosa qilindi.

Ertaklarda safar motivining qo'llanilishi borasida ikkala til xalq ertaklarida aniqlangan o'xshashliklar farqli jihatlardan ustunlik qildi, ya'ni, maqsadiga ko'ra qahramonlarning baxt izlab safarga o'tlanishi hamda shu safar mobaynida ularga homiy—yordamchi paydo bo'lib, mushkulini oson qilish holatlari aniqlandi.

Xalq og'zaki ertaklarida safar yakuniga ko'ra ingliz ertaklarida ko'pincha salbiy oqibatlar kuzatilsa, o'zbek xalq ertaklarida esa qahramonlarning qilgan safari ijobiy yaxshiliklar bilan tugallanadi degan xulosaga keldik.

Ilmiy ishda tahlil qilingan barcha folklor asarlar namunalarida o'zbek tilidagi adabiyotlarda safarning davomiylik muddatiga ko'ra uzoqroq ekanligi o'rganib chiqildi. Aksincha, ingliz folklorida esa, farqli ravishda, safar davomiyligi qisqa va aksariyat hollarda safar qilinadigan manzil uzoqligiga urg'u berilishi o'rganildi.

Safarda qahramonning qaysi ulov vositasida sayohat qilishi yuzasidan ingliz folklorida ot va kema obrazlari uchratildi, ammo, o'zbek folklorida qahramonlarning tuya hamda ot ulovlarida safar qilishlari aniqlandi.

O'zbek lirik qo'shiqlarida qahramonlar safaridan yagona maqsad—yor visoliga yetishish ekanligi, biroq, ingliz tilidagi misollarda esa qahramonlarning mavjud tizimdan qochishi yoxud tiriklik va o'lim o'rtasidagi hayot halqasining aks ettirilishiga namunalar topildi.

Bundan tashqari, safar motivining Josef Kempbell tomonidan ilgari surilgan nazariyasiga ko'ra ushbu tadqiqot ishida o'rganilgan folklor janrlarida ingliz va o'zbek tilidagi namunalarda « Qahramon safari » bosqichlar ketma-ketliklari aniqlandi.

Safar motivining ma'no turiga ko'ra, ikkala til folklor asarlarida ifodalangan safar motivining qidirish, izlash ma'nosi mavjudligi topilgan misollar orqali isbotlandi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. Toshkent, 2017
2. Путилов Б.Н. Веселовский и проблемы фольклорного мотива // Наследие Александра Веселовского: Исследования и материалы. – СПб., 1992. – С.74 – 85.
3. Гаспаров Б.М. Литературные лейтмотивы. – М.: Наука, 1994. – 303 с
4. Веселовский А.Н. Поэтика сюжетов // Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989. – С.300 – 306.
5. Howard, N. The Quest Motif in Literature. Supplemental handout for English. 2010.
6. Joseph Campbell, The Hero with a Thousand Faces. Princeton: Princeton University Press, 1949. p. 30-35
7. Knowles James. The Legends Of King Arthur And His Knights. 2004. P 15
8. Perrault, Charles. "Little Red Riding Hood" 1697
9. Mirzayev T. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. Toshkent, 2008. 45-bet
10. <https://www.lizlyle.lofgrens.org/RmOISngs/RTOS-GoldenVanity.html>